

B.TO‘XLIYEV - “QUTADGU BILIG”SHUNOSLAR MAKTABINING ASOSCHISI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.023>

B.Abdurahmonova
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyotshunos olim B.To‘xliyevning ilmiy merosi tavsifi berilgan. Olimning ilmiy maktabi borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy maktab, adabiyotshunos, ilmiy qarashlar, an‘ana, davomiylik

B.TOKHLIYEV - FOUNDER OF THE SCHOOL OF SCIENTISTS “QUTADGU BILIG”

B.Abdurakhmonova
Kokand State University

Abstract: This article describes the scientific heritage of the literary scholar B. Tokhliyev. The scholar's scientific school is discussed.

Keywords: scientific school, literary scholar, scientific views, tradition, continuity

Har bir yirik olim o‘zining ilmiy faoliyati, yaratgan asarlari, ilgari surgan yangi g‘oyalari va yondashuvlari bilan ma’lum bir ilmiy yo‘nalishda o‘ziga xos maktab yaratadi. Bu maktab uning shogirdlari, izdoshlari tomonidan davom ettiriladi va boyitiladi. Professor Boqijon To‘xliyevning “Qutadg‘u bilig” asari bo‘yicha olib borgan ko‘p yillik samarali tadqiqotlari ham uni haqli ravishda o‘zbek adabiyotshunosligida “Qutadg‘u bilig”shunoslar maktabining asoschisi deb atashimizga imkon beradi. Adabiyotshunos olim B.To‘xliyev o‘zbek adabiyotshunosligining bir qator sohalarida ilmiy maktab yaratdi. Ilmiy maktab nima? Ilmiy maktab -ilmiy qarashlar yaxlitligi va betakrorligi asoslangan ilmiy jamoa. U kafedra, institut, mamlakat doirasida olimlarning muayyan ilmiy g‘oya atrofida birlashuvlari asosida shakllanadi. Ilmiy maktab zakovati, qiziqishlar doirasi hamda ish uslubi yangi-yangi iste’dodlarni kashf qilish va jalb etishda katta ahamiyat kasb etadigan fan darg‘asi ta’sirida tashkil topadi. Bu ilmiy jamoa ichidagi munosabatlar tadqiqotlarning natijalari emas, balki ijodiy-ilmiy ishlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan asl g‘oyalar haqidagi axborot almashuvlari ko‘rinishida bo‘ladi. Bir ilmiy g‘oya muayyan maktab doirasida turli ko‘rinishga ega bo‘lishi ham mumkin.

Bu-ijobiy hodisa. Zero, u yangidan-yangi maktablar shakllanishi va taraqqiy etishiga olib keladigan firqa va taraflar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

"Ilmiy maktab" atamasi ikki holatda qo'llanadi: 1) umumiy qarash, g'oya va qiziqishlar olimlarni birlashtiradi, uzviy hamkorlikka olib keladi. Bu yosh talantlarni jalb qilib, yangi fan sohalarining ko'p yillik taraqqiyot darajasi va yo'llarini belgilab beradi. Bunday maktab "baxtli vaziyat mahsuli" o'laroq tashqi qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi; 2) ilmiy avlodlar almashsa ham, saqlanib qoladigan va rivojlanib boradigan aniq mavzu, umumiy qarash, qiziqish va an'analar sistemasi asosida tashkiliy ravishda birlashtirilgan ilmiy jamoa. Ilmiy maktab ilmiy qiziqishlar uyg'unligi va tadqiqotlar mohiyatining umumiyligi, asllik va betakrorlik, ilmiy natijalarning yuqori darajasi va maktabning ijtimoiy tan olinishi, yetakchining rolini va maktabning istiqbollari ta'minlaydigan vorisiylik belgilariga ega. Fanlarning falsafiy davrida hukm surgan maktablar mustaqil markaz va institutlar maqomida edi. Keyinchalik "ilmiy maktab" tushunchasi ostida olimlarning aniq norasmiy jamoasi tushuniladigan bo'ldi. Masalan, qadimgi davrda san'at va falsafiy fikr maktablari (Arastu shogirdlari va davomchilari jamoasi) ilmiy maktabning yorqin ko'rinishi edi"¹.O'ning bu boradagi xizmatlari shunchaki bir nechta monografiya yoki maqola yozish bilan cheklanmaydi, balki asarni tadqiq etishning yaxlit bir konsepsiyasini,o'ziga xos metodologiyasini ishlab chiqqanida namoyon bo'ladi.

Boqijon To'xliyev ilmiy maktabining asosiy tamoyillarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Kompleks yondashuv: B. To'xliyev "Qutadg'u bilig"ni faqat adabiy yodgorlik sifatida emas, balki o'z davrining siyosiy, ijtimoiy, falsafiy, axloqiy va madaniy hayotini o'zida aks ettirgan qomusiy asar sifatida o'rganadi.Uning tadqiqotlarida adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, matnshunoslik, tilshunoslik, tarix, falsafa kabi bir necha fanlarning yutuqlari sintez qilingan. Bu esa asarning turli qirralarini o'zaro aloqadorlikda, yaxlit bir butunlik sifatida ko'rish imkonini beradi.Olimning folklorga oid qarashlari, uning "Qutadgu bilig" asari matni utidagi ishlar, asar poetikasiga bog'liq ilmiy qarashlar, poetik tahlil metodlari ana shu kompleks yondashuvning tarkibiy qismlaridir.

2. Matnshunoslik va manbashunoslikka alohida e'tibor: B. To'xliyev maktabining eng muhim xususiyatlaridan biri-bu matn va manbalar bilan ishlash mahoratidir.U asarning folklor manbalarini aniqlashda butun turkiy xalqlar og'zaki ijodiga murojaat qiladi. Shu bilan birga, u "Qutadg'u bilig"ning o'zini ham keyingi davrlar adabiyoti uchun muhim manba bo'lganini asoslab beradi. Bu esa asarni turkiy adabiyotning uzluksiz taraqqiyot zanjiridagi muhim halqa sifatida ko'rishga yordam beradi.

¹www.ma'rifat.uz

3. Ilmiy-ommabop uslubning uyg'unligi: B. To'xliyev bir tomondan chuqur ilmiy tahlilga asoslangan tadqiqotlar yaratga, ikkinchi tomondan, "Qutadg'u bilig"dek murakkab asarni keng kitobxonlar ommasiga tushunarli tilda yetkazishga harakat qiladi. Olim murakkab falsafiy fikrlarni, qadimiy so'zlarni sodda va ravon tilda, ammo ilmiy chuqurlikni yo'qotmagan holda sharhlab bera olgan. Bu esa uning ilmiy maktabi nafaqat akademiya doirasida, balki butun jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu yondashuv "Turkiy adabiyot durdonalari" kabi yirik loyihalarda o'z aksini topgan bo'lib, unda B. To'xliyev to'plovchi va nashrga tayyorlovchilardan biri sifatida ishtirok etgan¹.

Boqijon To'xliyevning ilmiy maktabi bugungi kunda ham o'z ilmiy faoliyatini yo'qotmagan. Uning asarlari yosh tadqiqotchilar uchun "Qutadg'u bilig"ni o'rganishda muhim metodologik qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Olimning ilmiy merosi kelajakda "Qutadg'u bilig"ning hali to'liq o'rganilmagan qirralarini - asarning tasavvuf adabiyoti bilan aloqalari, asarning boshqa tillardagi nusxalari bilan qiyosiy tahlili kabi masalalar zamonviy adabiyotshunoslikning so'nggi yutuqlariga tayanib tadqiq etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Professor Boqijon To'xliyevning "Qutadg'u bilig" asari bo'yicha olib borgan ko'p qirrali ilmiy faoliyati uni haqli ravishda o'zbek adabiyotshunosligida o'ziga xos "Qutadg'u bilig maktabi"ning asoschisi sifatida e'tirof etishga imkon beradi. Olimning yondashuvi asarni shunchaki tarixiy-adabiy yodgorlik sifatida o'rganishdan ancha keng qamrovlidir. B. To'xliyev asarni yaxlit, jonli bir organizm sifatida ko'radi va uni folklorshunoslik, matnshunoslik, lingvistika, poetika va falsafa kabi bir necha ilmiy yo'nalishlar kesishgan nuqtada tadqiq etadi.

B. To'xliyevning tadqiqotlari, nasriy bayonlari va izohlari shunchaki tarjima yoki soddalashtirish emas, balki chuqur ilmiy tahlilga asoslangan fundamental tadqiqot ekanligi olimning ilmiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Asardagi obrazlar tizimi, xususan, hayvonlar bilan bog'liq ramziyat va o'xshatishlarning B. To'xliyev tomonidan berilgan sharhlaridan D. Odilova kabi keyingi avlod tadqiqotchilari tayanib fikr yuritganini, asarning ingliz tilidagi nashri asosida ilmiy tadqiqot olib borgan J. Ibragimov "Qutadg'u bilig" metaforalari tadqiqotida B. To'xliyevning "Qutadg'u bilig" poetikasiga oid ilmiy xulosalariga tayanganini asos qilib ko'rsatadi. Shuningdek, olimning lingvistik tahlil metodlari - leksik-semantik, etimologik va qiyosiy-tarixiy yondashuvlari asar tilining qadimiy va boy tabiatini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, B. To'xliyevning ilmiy faoliyati "Qutadg'u bilig"ni o'rganishda yangi bir ilmiy an'anani, o'ziga xos maktabni shakllantirdi. Bu maktabning asosiy tamoyillari - kompleks yondashuv, manbashunoslikka chuqur e'tibor, ilmiy va ommabop uslub uyg'unligi hamda qiyosiy-tarixiy metodning ustuvorligidir. Ushbu

¹ Yusuf Xos Hojib. Ahmad Yugnakiy. Turkiy adabiyot durdonalari. To'plovchilar va nashrga tayyorlovchilar: B. To'xliyev, E. Ochilov. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2022. – 608 b.

ilmiy maktab bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va yosh tadqiqotchilar uchun muhim metodologik zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, professor Boqijon To'xliyev o'zining serqirra ilmiy faoliyati bilan o'zbek "Qutadg'u bilig"shunosligida yangi bir davrni boshlab berdi. Uning ilmiy maktabi asarni har tomonlama, chuqur va tizimli o'rganishning, uni xalq mulkiga aylantirishning yorqin namunasidir. B. To'xliyevning nomi Yusuf Xos Hojibning donishmandlik kitobini hozirgi avlodlarga yetkazgan, uning ma'no qatlamlarini kashf etgan fidoyi olim sifatida adabiyotshunosligimiz tarixida munosib o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Odamning joni. Maqolalar to'plami. - Toshkent, 2024.
2. Turkiy adabiyot durdonalari. To'plovchilar va nashrga tayyorlovchilar: B. To'xliyev, E. Ochilov. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2022. - 608 b.
3. www.ma'rifat.uz
4. Tuxliyev B. Voprosy poetiki "Kutadgu bilig" Yusufa Xas Xadjiba. - T.: Asr-Matbuot, 2004. - 104 s.
5. Abduraxmonova B. Ta'lim bosqichlarida "Qutadg'u bilig"ni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari: Ped. fan. nomz. diss.... - Toshkent: 2007. 266 b.